

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMADOVA FERUZAXON MIRZAAXMAD QIZI

**INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK
MUTAXASSISLARNING PEDAGOGIK MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI (“Pedagogika nazariyasi va tarixi”
mutaxassisligi misolida)**

13.00.02 –Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan - 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi

Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish metodikasi (“Pedagogika nazariyasi va tarixi” mutaxassisligi misolida)..... 3

Мамадова Ферузахон Мирзаахмад кизи

Методика развития педагогической культуры будущих специалистов на основе инновационного подхода (на примере специальности «Теория и история педагогики»)..... 25

Mamadova Feruzakhon Mirzaahmad kizi

Methodology for developing pedagogical culture of future specialists based on innovative approach (on the example of specialty “Theory and history of pedagogy”) 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMADOVA FERUZAXON MIRZAAXMAD QIZI

**INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK
MUTAXASSISLARNING PEDAGOGIK MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI
(“Pedagogika nazariyasi va tarixi” mutaxassisligi misolida)**

13.00.02 –Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan - 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2PhD/Ped10119 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namspi.uz) va "Ziyonyet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Asqarova Manzura Avazbekovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent.

Rasmiy taqrizchilar:

Qo'ldasheva Maxmuda Nurmatjonovna
Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'murov Baxodir Baxshullayevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «10» 10 soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-11-69; e-mail: info@namspi.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (070 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-11-69)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "25" 09 kuni tarqatildi.
(2025-yil "25" 09 dagi 10 - raqamli reyestr bayonnomasi).



M.R. Qodirxonov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, k.f.d. (DSc), dotsent

S.X. Mutalov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

T.I. Ismoilov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish masalasi dolzarb yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan davlatlarida pedagogik madaniyatni shakllantirish va innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha samarali metodikalar amaliyotga joriy etilmoqda. Xususan, Germaniya ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar yordamida o'qituvchilarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. AQSh va Buyuk Britaniyada esa interaktiv o'qitish metodlari, virtual laboratoriyalar va amaliy mashg'ulotlar yordamida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik madaniyati rivojlantirilmoqda. Shu bois, innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlantirishning metodik tizimini pedagogika fanlari doirasida tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda.

Dunyo miqyosida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash mazmuni, ijtimoiy va tabiiy yaxlitlik sifatida real dunyoning mavjudligi va rivojlanishi qonunlari, uning elementlari o'rtasidagi asosiy aloqalar va munosabatlarning tabiati haqida tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, innovatsion fikrlashni rivojlantirish muammosining o'ziga xos xususiyatlari, ta'limni tashkil etish jarayonida innovatsiya va integratsiya muammolari, integratsiyaning nazariy masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini ta'lim jarayonini tashkil etishning innovatsion va integratsion texnologiyalari, jumladan, integratsiya jarayonlarining qonuniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyitish dolzarb vazifalarga aylanmoqda.

O'zbekistonning Oliy ta'lim tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham "inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish, xalqaro standart asosida yuqori malakali, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar"¹ sifatida belgilangan bo'lib, bu orqali "pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish" maqsad qilinmoqda. Buning uchun esa, "pedagogika sohasi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari uchun o'zgaruvchan o'quv reja va dasturlarni joriy etish..." vazifalari belgilanish asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmonlari, 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5040-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1059-son qarori hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda bo'lajak pedagoglarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik, antropologik va akmeologik masalalari yuzasidan B.Adizov, R.Djurayev, O.Jamoliddinova, Z.Ismailova, U.Mahkamov, Sh.Mardonov, O.Musurmonova, N.Ortiqov, B.Raximov, D.Ro'ziyeva, D.Sharipova, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonova, N.Egamberdiyeva, M.Quronovlar tadqiqot olib borishgan. Shuningdek, M.Y.Mahkamova, R.A.Abduxairov, S.F.Rajabova, B.R.Djurayeva, N.Muslimov, O.A.Qo'ysinovlarning tadqiqotlarida pedagogik madaniyatni innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish masalalarida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlari V.A.Slastenin, Ye.V.Bondarevskaya, V.F.Isayev, A.G.Asmolov, O.V.Pavlova, O.S.Matveyeva, L.V.Benin va N.B.Krilovalar pedagogik madaniyatni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqanlar. Ularning izlanishlarida pedagogik faoliyatning innovatsion jihatlari va zamonaviy yondashuvlar asosida mutaxassis tayyorlash masalalari muhim o'rin tutadi.

Xorijiy mamlakatlarda pedagogik madaniyat va innovatsion metodikalarning o'zaro bog'liqligi, pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish usullari Arnold, Jason Diamond, Chris Watling, Erik Driessen, Cees Van der Vleuten, Meredith Vanstone, Pierce James Gerard, Szeto Elson kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Ularning tadqiqotlari pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish yo'llarini aniqlashga qaratilgan.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassislari pedagogik madaniyatini rivojlantirish muammosi bilan bog'liqlikda turli soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, biroq bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini aynan innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning metodik asoslarini ishlab chiqish masalasi hali to'liq va mukammal darajada o'rganilmaganligi mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlarni olib borishni taqozo etdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan Oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Pedagogika fanlarini o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar va rivojlanish tendensiyalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi innovatsion yondashuv asosida bo'lajak pedagogika magistrLARining pedagogik madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"Pedagogik madaniyat" tushunchasini nazariy-metodologik jihatdan tadqiq qilish, uning aksiologik, gnoseologik, didaktik va etnopedagogik asoslarini aniqlash;

bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini tashkil etuvchi tarkibiy komponentlarni aniqlash hamda ularni rivojlantirish uchun pedagogik, metodik va didaktik resurslarni tahlil qilish;

innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak mutaxassislar pedagogik madaniyatini shakllantirishga mo'ljallangan model va uning metodik tizimini ishlab chiqish;

loyiha qilingan model va metodik tizimning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish jarayoni tanlanib, tajriba-sinovda Andijon davlat pedagogika institutidan 31 nafar, Guliston davlat pedagogika institutidan 44 nafar, Termiz davlat pedagogika institutidan 33 nafar va Farg'ona davlat universitetidan 28 nafar magistrantlar ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot muammosiga doir adabiyotlarni qiyosiy-tahliliy o'rganish va tahlil etish; sotsiologik metodlar (suhbat, anketa, so'rovnoma, intervyu, test sinovlari), pedagogik-psixologik metodikalar, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik va statistik tahlil etish kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlantirishga oid diagnostik tizimning qo'shimcha nazariy-metodologik imkoniyatlari akademik kompetensiyalarning strukturasi bosqichma-bosqich funksional loyihalash, pedagogik jarayonlarida fasilitatsion rakursda moslashuvchan va maxsus ko'nikmalar (soft skills, hard skills)ni nostandart keyslar va intellektual suhbat(assessment)larning dominantligini ta'minlash orqali asoslab berilgan;

bo'lajak mutaxassislarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish metodikasi didaktik faoliyatga akkulturatsiya omillarning effektiv ta'sirini progressiv baholash hisobiga kasbiy-pedagogik savodxonlik va emotsional intellektni mustahkamlashdagi yakka va jamoaviy dillemmalar, mantiqiy tafakkur mashqlar

va dialektik idrok kabi pedagogik algoritmlarni shakllantirish asosida modifikatsiya qilingan;

bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish modeli intellektual ko'nikmalarni madaniy qadriyatlarga oid bilimlar bilan integratsiyalash orqali kasbiy pozitsiya va pedagogik taktikaning shakllanishi, aksiologik yondashuv asosida kasbiy-pedagogik faollikni namoyon qilish, yetuk pedagog shaxsini shakllantirishga qaratilgan divergent (barqaror va moslashuvchan) rivojlanish dinamikasini ta'minlash yo'nalishida metodologik asoslab takomillashtirilgan;

pedagogik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy metodologik resurslar bazasi kasbiy-madaniy fazilatlarni yuksaltirishdagi samaradorligi qayta ko'rib chiqilgan va pedagogik bilimlar, ijtimoiy ko'nikmalar, madaniyatlilik xususiyatlari hamda etnomadaniy qadriyatlarning uyg'unligi va kognitiv algoritmlash mexanizmlari asosida transformativ mexanizmlarga ko'ra takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish komponentlari, pedagogik, metodik va didaktik asoslari tadqiq etilgan;

innovatsion yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish modeli va metodik tizim takomillashtirilgan;

innovatsion yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan;

innovatsion yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Pedagogik mahorat" nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mazkur tadqiqotning metodologik asoslari puxta ishlab chiqilgani, tanlangan metodik yondashuvlar va tadqiqot usullarining ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, tajriba-sinov ishlari uchun maydonchalar belgilangan mezonlarga muvofiq tanlangani, yetarli miqdorda respondentlar jalb etilgani, to'plangan empirik ma'lumotlarning aniqligi, ishonchliligi va tasdiqlanganligi, statistik tahlil esa ishonchli matematik usullar asosida amalga oshirilgani, shuningdek, tayyorlangan xulosa, tavsiya va takliflarning amaliyotga tatbiq etilgani hamda yakuniy natijalar tegishli vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlangani ushbu ishning ilmiy ishonchliligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan tavsiya va metodik ko'rsatmalar pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida o'quv jarayonining sifatini yuksaltirishga, shuningdek, innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur tavsiyalar zamonaviy ta'lim texnologiyalarini samarali tatbiq etishda, o'quv reja va dasturlarni didaktik jihatdan takomillashtirish jarayonida qo'llanishi mumkinligi bilan alohida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy qimmati esa, eng avvalo, innovatsion yondashuv asosida bo'lajak pedagogika magistrilarining pedagogik madaniyatini

rivojlantirish mazmuni aniqlangani, ularni shakllantirishga xizmat qiluvchi metod, shakl va vositalarning takomillashgani bilan namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, pedagogik madaniyat darajasini baholashga mo‘ljallangan diagnostik vositalar ishlab chiqilgani, “Innovatsion-pedagogik faoliyatni tashkil etish texnologiyasi” fanini o‘qitish bo‘yicha ilg‘or texnologiyalar ishlab chiqilgani va ilmiy-metodik asosda taklif etilgani mazkur tadqiqotning amaliy samaradorligini yanada oshiradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish metodikasi” asosida:

bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlantirishga oid diagnostik tizimning qo‘shimcha nazariy-metodologik imkoniyatlari akademik kompetensiyalarning strukturasi bosqichma-bosqich funksional loyihalash, pedagogik jarayonlarida fasilitatsion rakursda moslashuvchan va maxsus ko‘nikmalar (soft skills, hard skills)ni nostandart keyslar va intellektual suhbat(assessment)larning dominantligini ta‘minlash orqali asoslab berilishiga doir metodik tavsiya va ilmiy takliflardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan FZ-2020010829-raqamli “Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 14-iyundagi 11-05-3878/04-son ma‘lumotnomasi). Natijada, pedagogik madaniyat tushunchasining ilmiy asosi, mazmuni aniqlashtirilgan, bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari takomillashtirilgan;

bo‘lajak mutaxassislarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish metodikasi didaktik faoliyatga akkulturatsiya omillarning effektiv ta‘sirini progressiv baholash hisobiga kasbiy-pedagogik savodxonlik va emotsional intellektni mustahkamlashdagi yakka va jamoaviy dilemmalar, mantiqiy tafakkur mashqlar va dialektik idrok kabi pedagogik algoritmlarni shakllantirish asosida modifikatsiya qilinganligiga doir ilmiy yangiliklardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan FZ-2020010829-raqamli “Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 14-iyundagi 11-05-3878/04-son ma‘lumotnomasi). Natijada bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlanganlik darajasini aniqlashtirish va baholash imkoniyatlarini boyitishga erishilgan;

bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish modeli intellektual ko‘nikmalarni madaniy qadriyatlarga oid bilimlar bilan integratsiyalash orqali kasbiy pozitsiya va pedagogik taktikaning shakllanishi, aksiologik yondashuv asosida kasbiy-pedagogik faollikni namoyon qilish, yetuk pedagog shaxsini shakllantirishga qaratilgan divergent (barqaror va moslashuvchan) rivojlanish dinamikasini ta‘minlash yo‘nalishida metodologik asoslab takomillashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalardan “O‘zbekiston” teleradiokanalida 2024-2025-yillarda efirga uzatilgan “Ta‘lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari”, “Bolalar va biz” dasturlari ssenariylarini yozishda foydalanilgan

(O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 4-martdagi 05-09-262-son ma’lumotnomasi). Natijada innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarining pedagogik madaniyatini rivojlantirish modeli va uning metodik tizimini takomillashtirishga erishilgan;

pedagogik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy metodologik resurslar bazasi kasbiy-madaniy fazilatlarni yuksaltirishdagi samaradorligi qayta ko‘rib chiqilgan va pedagogik bilimlar, ijtimoiy ko‘nikmalar, madaniyatlilik xususiyatlari hamda etnomadaniy qadriyatlarning uyg‘unligi va kognitiv algoritmlash mexanizmlari asosida transformativ mexanizmlarga ko‘ra takomillashtirishga oid ilmiy-nazariy, metodik tavsiyalar “Pedagogik mahorat” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-son nashr ruxsatnomasi). Natijada innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarining pedagogik madaniyati va mahoratini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro darajadagi 4 ta hamda respublika miqyosidagi 2 ta ilmiy-amaliy anjumanda muhokama qilinib, ilmiy hamjamiyat tomonidan keng ko‘lamda baholangan va tahlil etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 20 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta monografiya tayyorlangan. Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (4 tasi respublika miqyosidagi, 1 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta asosiy bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Asosiy matn jami 153 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot ishining maqsad, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarga mosligi va tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, tadqiqot ishining tuzilishi haqida ma’lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak mutaxassislarda pedagogik madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo‘lajak mutaxassislarining pedagogik madaniyatini rivojlantirish zarurati va ijtimoiy asoslari tadqiq etilgan.

Bugungi kunda bo‘lajak kadrlarda shakllantirish kerak bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga qo‘yilayotgan talablar asosida pedagoglar mahoratini oshirish,

ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan birga ularning pedagogik madaniyatini ham rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarurati yuzaga kelmoqda. Pedagogik madaniyat tushunchasi ta'lim va tarbiya sohasidagi o'quvchilar, o'qituvchilar, umumiy jamiyatning ma'naviy axloqiy qadriyatlari, me'yorlari va an'analari bilan bog'liq bo'lgan tizim bo'lib, o'qituvchining pedagogik faoliyatida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, rivojlantirish va tarbiyalashni anglatadi. Kasbiy pedagogik kompetentlik muvaffaqiyati qator omillarga bog'liq bo'lib, ulardan biri pedagogik madaniyat bo'lib hisoblanadi.

Pedagogik madaniyat, nafaqat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni, balki jamiyatning umumiy ma'naviy darajasini ham belgilaydi. Bu tushuncha o'qituvchining o'zi va uning faoliyatida yuzaga keladigan ijtimoiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlarni, o'quvchilarga to'g'ri, samarali tarzda yetkazishni nazarda tutadi.

Fikrimizcha, pedagogik madaniyat – intellektual, ijodiy kuchlar va kasbiy-shaxsiy qobiliyatlarning to'la samaradorlik bilan ishlashi bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonning ma'lum darajadagi talabi bu ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyati va tarbiyaviy jarayoni, ular orasidagi o'zaro munosabatlarning aniq tashkil qilinishi, pedagogik jihatdan boshqarilishi va qonuniy nazorati, kasbiy-pedagogik faoliyat natijasidir.

Pedagogik madaniyat "... o'qituvchining o'z kasbiy faoliyati jarayonida erishgan yutuqlari, ma'rifatliligi, kasbiy odobi, mahoratini ifodalovchi atama. O'qituvchi pedagogik madaniyatining tarkibiy qismlari sifatida uning intellektual rivojlanganlik darajasi, kasbiy tafakkuri, kasbiy kompetensiyalari, odobi, imiji, muloqot ko'nikmalari tashkil etadi"². Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, pedagogik madaniyat umumiy madaniyatning pedagogik jarayonda namoyon bo'ladigan xususiy ko'rinishidir. Pedagogik madaniyat pedagogik faoliyat ta'sirida vujudga keladi. Pedagogik faoliyat pedagogik madaniyatning paydo bo'lishida zarur bo'lgan shart-sharoit bo'lib, u pedagogik tajriba, pedagog shaxsi va pedagogik faoliyatining rivojlanganlik darajasini belgilaydi.

Pedagogik madaniyatda pedagogik yo'nalganlik alohida o'rin egallaydi. U tayanch ustun bo'lib uning atrofida pedagogning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy xususiyatlari mujassamlashadi. Pedagogik yo'nalganlik pedagoglik kasbga ishtiyoq, pedagogik mehnatga layoqat kabilarni o'z ichiga oladi va bular pedagogning hayotiy ehtiyoji va yashash tarziga aylanadi. Pedagogik yo'nalganlikning amalda namoyon bo'lishi o'qituvchining pedagogik faoliyati uning o'quvchilarga hamkasblarga va boshqa kishilarga munosabati ular oldidagi mas'uliyat hissida ko'rinadi. Pedagogik yo'nalganlikning tayanch tushunchalariga pedagogik e'tiqod kiradi va u pedagogik faoliyat jarayonida izchil harakat qilish mantiqiylik va maqsadga qarab intilishga undaydi.

Pedagogik tafakkur madaniyati pedagogik tahlil sintez qobiliyatlarning rivojlanganligi mushohada qilish, tanqidiylik, mustaqillik, kuzatuvchanlikning

² Абдуллажанова М. А. Формирование профессиональных качеств будущего учителя в процессе обучения в педвузах (на примере учителя узбекского языка и литературы): Автореф. дисс... канд. пед. наук. – Т, 1991. – 17 с.

kengligi, faolligi, tezligi, pedagogik xotira, ijobiy tasavvur kabilarni o'ziga mujassamlashtiradi. O'qituvchining tafakkur madaniyati uning nutq madaniyati bilan bog'liq agar uning so'z boyligi kam bo'lsa o'z fikrlarni aniq qisqa va lo'nda bayon eta olmaydi. O'quv materialini yetkazish va tarbiyalashda qiynaladi.

Pedagogik madaniyat tarkibida pedagogik yo'nalgan muloqot va xulq atvor madaniyat tarkibi muhim o'rin egallaydi. Pedagogik muloqot madaniyati eshitish va suhbatdoshni tinglash savol bera olish, aloqa o'rnatish, boshqa kishini tushunish, pedagogik vaziyatlarda yo'l topa olish ko'nikmalarida ifodalanadi.

Pedagogik madaniyatning muhim komponentlardan biri pedagogik mahoratdir. Pedagogik mahorat – bu rivojlangan psixologik – pedagogik tafakkur, pedagogik bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va hissiy irodaviy ifodalangan vositalar tizimi bo'lib pedagog shaxsining yuksak rivojlangan shaxsiy sifatleri bilan birgalikda unga o'quv tarbiyaviy topshiriqlarni hal etish uchun yordam beradi. Pedagogik mahoratning markaziy komponenti rivojlangan psixo-pedagogik tafakkur bo'lib, u pedagogik faoliyatdagi ijodkorlikka asoslanadi. Mahoratli pedagog tafakkuri, mustaqilligi, egiluvchanligi va tezligi bilan ajralib turadi. U rivojlanganlik pedagogik kuzatuvchanlik va ijodiy tasavvurga tayanadi.

Pedagogik ijodkorlik pedagogik jarayonda har doim yangi va asoslangan ta'lim – tarbiyaning turli metod va shakllarni qo'llay olish, kasbiy bilim va shaxsiy sifatlarda namoyon bo'ladi. Shuningdek pedagogik g'oyalarni anglash, o'quv tarbiya faoliyati usullari noan'anaviy topshiriqlarni yecha olish ko'nikmalarida ham ifodalanadi.

Pedagogika sohasida pedagogik kompetentlik tarkibi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, turli rakursdagi qarashlarda tadqiqotchilar pedagogik faoliyatning u yoki bu tarkibiy qismiga urg'u berishadi. Tahlillar asosidagi pedagogik kompetentlikning yaxlit holatdagi tarkibiy qismlari: kognitiv, kasbiy-texnologik, axborot, kommunikativ, metodik va boshqalardan iborat.

Pedagogik kompetentlik – bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishiga nisbatan ishlatiladi. Pedagogik kompetentlik bo'lajak o'qituvchining alohida bilim, malakalarning egallanishinigina emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislikka oid bilimlarni doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Pedagogik kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, ular uchun pedagogik kompetensiya kasbiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning birikmasi sifatida qabul qilinadi va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlar hisoblanadi. Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, pedagogik kompetensiya, birinchi navbatda, kasbiy faoliyat sohasi sharoitida aniqlangan muammolarni hal qilish

qobiliyatiga yo'naltirilgan yuqori darajadagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Faoliyat, xulq-atvorda shaxsiyatning faol namoyon bo'lishi bo'lib, u har qanday zarur vaziyatda inson tomonidan o'zlashtiriladigan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Pedagogik kompetensiyalarning tarkibiy qismlari har qanday mutaxassislik uchun malaka me'yorlariga javob beradigan va mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini belgilaydigan minimal va yetarli darajada xususiy qurilishlar sifatida ko'rib chiqiladi. Pedagogik mahoratning xususiy qurilishi asosida malakali mutaxassis uchun zarur bo'lgan asosiy sifatlar rivojlanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Bo'lajak pedagogik mutaxassislarning pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirishning metodikasi**" deb nomlanadi. Mazkur bobda bo'lajak pedagogik mutaxassislarning pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuni, modeli, texnologiyasi va tuzilmasi tadqiq etilgan.

70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash milliy ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi magistratura mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-pedagogik tadqiqot faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'idagi eng yangi ilmiy, pedagogik yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

o'quv jarayoni va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish;

zamonaviy tadqiqot metodlari va metodologiyasini, ta'lim-tarbiyaga doir nazariyalar, konsepsiyalar, ilg'or tajribalardan foydalanish;

Ta'lim samaradorligini ta'minlash:

mashg'ulot maqsadlariga ko'ra ta'lim oluvchilar imkoniyatlaridan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos ko'rgazmali va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra mashg'ulotlarni tashkil qilish va zamonaviy yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o'qitishning interaktiv usullaridan foydalanish, ta'lim

oluvchilarning moslashuvchan va maxsus ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish, ta'lim oluvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil qilish, ta'lim oluvchilarni pedagogik qo'llab-quvvatlash (fasilitatsiya), nazariy va amaliy mashg'ulotlar uyg'unligini ta'minlash, ta'lim oluvchilarga tanqidiy va kreativ fikrlash imkoniyatlarini taqdim qilish, samarali muloqotga erishish;

Tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish:

tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va metodlarini auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda jins, yosh, madaniy va individual xususiyatlarni hisobga olish, ta'lim oluvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, fuqarolik pozitsiyasi, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish;

Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash:

ta'lim oluvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, nizoli vaziyatlarda optimal qaror qabul qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash;

O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish:

muntazam kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish, adabiyotlar bilan ishlash, yangi bilimlarni amaliyotga qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasida seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil qilish, o'zaro mashg'ulotlarni tahlil qilish, ochiq mashg'ulotlar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlantirishda quyidagi fazilatlar muhim hisoblanadi:

1. Bilish qobiliyati. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, ilmiy tadqiqot ishlarini ham bajaradi.

2. Pedagogik fikrlash madaniyati pedagogik tahlil va sintez qilish qobiliyatini rivojlantirish, fikrlashning tanqidiylik, mustaqillik, kenglik, moslashuvchanlik, faollik, tezkorlik, kuzatuvchanlik, pedagogik xotira, ijodiy tasavvur kabi fazilatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik fikrlash madaniyati o'qituvchining tafakkurini uch darajada rivojlantirishni nazarda tutadi: Birinchi darajasi uning pedagogik e'tiqodiga yo'naltirilgan uslubiy fikrlash darajasida. Uslubiy fikrlash o'qituvchiga kasbiy faoliyatida to'g'ri ko'rsatmalarga rioya qilish, gumanistik strategiyani ishlab chiqish imkonini beradi; ikkinchi darajasi taktik fikrlash bo'lib, o'qituvchiga pedagogik g'oyalarni pedagogik jarayon texnologiyasida moddiylashtirishga imkon beradi; uchinchi daraja (operatsion fikrlash) umumiy pedagogik qonuniyatlarni real pedagogik voqelikning alohida, noyob hodisalariga mustaqil ravishda ijodiy tatbiq etilishida namoyon bo'ladi.

3. Tushuntira olish qobiliyati - o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o'quvchilarda mustaqil ravishda to'g'ri fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyati. O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi lozim. Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning bilim va

kamolot darajasini hisobga oladi, ularni nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo‘yganliklarini tasavvur etadi. Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi o‘zini o‘quvchining o‘rniga qo‘ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo‘lgan narsalarning o‘quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bo‘lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning shaklini alohida rejalashtiradi.

4. Kuzatuvchanlik qobiliyati. - o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog‘lik bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlik. Bunday o‘qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo‘lmagan tashqi belgilar asosida o‘quvchining ruhiyatidagi ko‘z ilg‘amas o‘zgarishlarni ham fahmlab oladi. O‘quvchilar bunday o‘qituvchi haqida: “qaramayotganga o‘xshaydiyu, hamma narsani ko‘rib turadi!”, “O‘quvchining xafa bo‘lganligini yoki dars tayyorlamayotganligini ko‘zidan biladi!” - deydilar.

5. Nutq qobiliyati - nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o‘z fikr va tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. O‘qituvchining nutqi darsda hamisha o‘quvchilarga qaratilgan bo‘ladi. O‘qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o‘quvchining javobini tahlil qilayotgan yoki qoralayotgan bo‘lsa ham, uning nutqi hamisha o‘zining ichki kuchi, ishonchi, o‘zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi.

6. Tashkilotchilik qobiliyati - birinchidan, o‘quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan, o‘z ishini uyushtirishni nazarda tutadi. O‘z ishini tashkil etish deganda ishni to‘g‘ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi.

Tajribali o‘qituvchilarda vaqtni o‘ziga xos his etish ishni vaqtga qarab to‘g‘ri taqsimlay olish, belgilangan muddatga ulgurish xususiyati hosil bo‘ladi.

Tadqiqot ishi doirasida innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyati rivojlantirish modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang)


Mazkur modelning “Maqsad” blogida belgilangan asosiy maqsad “Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyati rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Malaka talablariga ko‘ra “Innovatsion-pedagogik faoliyatni tashkil etish” fani magistrnlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va pedagogik madaniyatini rivojlantirishdagi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

Modelda innovatsion yondashuv tuzilmasi 4 komponentdan iborat bo‘lishi belgilangan:

1. Pedagogik bilimlar;
2. Pedagogik sifatlar;
3. Pedagogik mahorat;
4. Pedagogik madaniyat.

Modelda bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyati rivojlantirish metodikasi 4 blok tuzilmadan iborat ekanligi belgilanib, ularga shart-sharoit bloki, imkoniyat bloki, kasbiy faoliyat bloki va tashkillashtirish shaklini o‘z ichiga oladi.



1-rasm. Bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish modeli.

Shart-sharoit bloki mutaxassislik fanlarini innovatsion yondashuvga tayanib tashkil etish va “Innovatsion-pedagogik faoliyatni tashkil etish” fani doirasida kasbiy faoliyatga tayyorlash innovatsion yondashuvga tayanishga asoslanadi.

Imkoniyat blokida kasbiy-pedagogik faoliyatda pedagogik bilimlar, sifatlari va mahoratni uygʻunlikda namoyon qilish asosida madaniyatni shakllantirishga asoslanadi.

Kasbiy faoliyat blokida kasbiy-ijodiy faoliyatda ijrochilik, oʻquv tashkiliy va ijtimoiy-madaniy, maʼrifiy va ijodiy-musiqiy tashabbuskorlikni namoyon qilish va ijodiy faollikka yoʻnaltirilgan kasbiy yoʻnalish asosida musiqiy taʼlim tashkil etilishiga asoslanadi.

Tashkillashtirish shaklida “Innovatsion-pedagogik faoliyatni tashkil etish” fani doirasida pedagogik madaniyatni rivojlantirishda texnologik yondashuvga asoslanish, taʼlim shakllari: maslahatli-maʼruza, muammoli va keysli seminarlar, oʻquv dialogi, konferensiya, davra suhbat, bahs-munozara, binar dars, katta va kichik guruhlarda ishlash asosida musiqiy mashgʻulotlar tashkil qilinadi.

Modelda boʻlajak mutaxassislarning pedagogik madaniyati rivojlantirish mezonlari sifatida kognitiv, operatsion va refleksiv mezonlar tanlab olindi.

Kognitiv mezon - pedagogik faoliyatga doir bilimlarni egallash va bu borasidagi bilimlarni baholash;

Operatsion – pedagogik madaniyatni kasbiy-pedagogik faoliyatda koʻrsata olish borasidagi koʻnikmalarni baholash;

Refleksiv- professional pedagogik faoliyatga refleksiyani va refleksiv pozitsiyani yuzaga kelishi borasidagi malakalarni baholashdan iborat.

“Daraja” tushunchasini talqin etilishida “Pedagogik madaniyatni rivojlanganlik darajasi” tushunchasi mohiyatini ifodalash oʻziga xos ahamiyat kasb etishini taʼkidlash lozim. Pedagogik madaniyatni rivojlanganlik darajasi – bu pedagogik faoliyatda zarur boʻlgan bilim, koʻnikma, sifat va mahoratni rivojlanganlik darajasi, miqdoriy va sifatiy namoyon boʻlish oʻlchovi sifatida keltirildi.

Tadqiqotimiz doirasida boʻlajak mutaxassislarning pedagogik madaniyati rivojlanganlik darajasini: past, oʻrta, yuqori kabi darajalarda aniqladik.


Modelning metodologiya qismiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, unda ijodiy taʼlim, emotsionallik, rivojlantiruvchi, natijaviylik tamoyillari aks etgan.

Natija blokida yuqorida belgilangan vazifalarni aniq ketma-ketlikda va algoritim asosida amalga oshirish tadqiqotning ilmiy faraziga taʼsir koʻrsatishi va boʻlajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlanishining ijobiy dinamikasi namoyon boʻlishi ifodalangan.

Texnologik yondashuvning umumiy tavsifiga tayangan holda, tadqiqot doirasida “Innovatsion-pedagogik faoliyatni tashkil etish” fani doirasida pedagogik madaniyatini rivojlantirishning quyidagi texnologiyasi ishlab chiqildi, uni “Pedagogik madaniyatni rivojlantirish texnologiyasi” deb nomladik (2-rasmga qarang).

Ushbu texnologiyada integrativlik birlamchi xususiyat ekanligi uning nomlanishida ifoda etilmoqda. Har qanday tizim ichki tuzilish, element (unsurlar)dan tashkil topar ekan, mazkur tizim oʻlaroq sifatlanayotgan mazkur

texnologiyaning unsurlari uning bosqichlaridir va u bir-birini taqozo etadigan va to'ldiradigan uch bosqichdan iborat.



2-rasm. Pedagogik madaniyatni rivojlantirish texnologiyasi.

Bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlanishda muammoli vaziyatlardan foydalanish quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi: 1) bo'lajak mutaxassislarning muammoli vaziyatlarni "Innovatsion-pedagogik faoliyatni tashkil etish" fani doirasida o'rganishda egallagan bilimlari doirasida ijodiy hal etish; 2) muammoli vaziyatlarni yechishda bo'lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatga doir fikrlarini shakllanishiga yo'naltirish; 3) bo'lajak mutaxassislarning vaziyatni hal etishda vaqtdan unumli foydalanish, diqqat e'tibori va aql kuchini jamlash; 4) individual va guruhik fikriy faoliyatni rivojlantirish. Muammoni hal etishning bir necha to'g'ri variantlarini izlab topish ko'nikmasini tarkib toptirish.

Tadqiqotimiz davomida "Pedagogika nazariyasi va tarixi" magistratura mutaxassisligi 2-kurs magistrleri uchun "Innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish" fani doirasida o'quv jarayoniga tatbiq etilgan pedagogik madaniyatni rivojlantirishning 3-bosqichlik texnologiyasi ishlab chiqildi.

"Hayot chizig'i" mashqi. Ushbu mashq talabalarni o'tmish hayotini tahlil qilib, buguni va kelajagi to'g'risida o'ylashga, kelajakni tasavvur qilish va rejalashtirishga imkon beradi.

Talabalarga o'tmishdagi hayotini, hozirgi kuni va kelajagini quyidagi chizma asosida tasvirlashlari so'raldi. Ular o'z e'tiborlarini ko'proq "Istakdagi kelajak" kataklariga qaratdi va deyarli hammalari orzusidagi kelajakni katta ijodkorlik bilan tasvirlagan. Biz ularga "Istakdagi kelajak"ka erishish uchun shunday motiv berdik: "Bir vaqtlar hozir hammangizni qo'lingizda turgan, istalgan sotuv rastasidan sotib olishingiz mumkin bo'lgan ruchka ham insoniyat uchun orzu bo'lgan, cho'ntagingizdagi telefonni ixtiro qilish hatto inson zotining xayoliga kelmagan, lekin inson tafakkuri, uning ijodiy tasavvuri juda ulkan ekanki, ko'z ko'rib – quloq eshitmagan narsalarni yaratishga qodir ekan. Buning uchun o'z ustida izlanishi, bor

kreativlik sifatlarini yanada rivojlantirishi kifoya qilarkan. Sizlar ham mavjud imkoniyatlardan to‘la-to‘kis foydalaning. O‘zingizni kashf eting!”.

Talabalarga mavzu matnini tushuntirishda ma‘ruzaning **“Maslahatli-ma‘ruza”** turidan foydalanildi. Maslahatli-ma‘ruzada dastlab o‘qituvchi mavzuning asosiy masalalarini qisqacha bayon qildi, so‘ng talabalar tomonidan berilgan savollariga javob berdi. Mashg‘ulot davomida munozaralarga boy holatda o‘tkazildi.

“Innovatorlar”. Ushbu o‘yinni amalga oshirishda talabalar guruhi 2 ga ajratildi, mavzu doirasidagi eng muhim 2 texnologiya 2 ta vatman qog‘ozga yozildi va biri birinchi guruhga va yana biri ikkinchi guruhga tarqatildi.

Mazkur o‘yin jarayonida talabalarga “Pedagogik mahorat” fani doirasida ularda pedagogik madaniyatni rivojlantirishda muhim bo‘lgan 2 tushuncha berildi (o‘tilgan mavzular yuzasidan):

- 1-guruh uchun “O‘yin texnologiyasi”.
- 2-guruh uchun “Muammoli ta‘lim texnologiyasi”.

Guruh a‘zolariga ushbu berilgan texnologiyalarga guruh ta‘rifini yozish va logotipini chizish topshirig‘i berildi. Shu tariqa guruhlarda ta‘rif berishda va surat ishlashga oid turli munozarali bahslar bo‘ldi. Talabalarni bu topshiriq yangi g‘oyalar ishlashga, ularda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga undadi. Mashg‘ulot so‘ngida o‘qituvchi guruhlarining ta‘riflarini, chizilgan logotiplarga izohlarini tingladi, natijalar muhokama qilindi va xulosalar bayon etildi.

“Yuksalish” texnologiyasi. Mazkur texnologiya talabalarni o‘sislari uchun aniq maqsadlarini belgilashlariga va maqsad sari oldinga intilishlariga yordam berdi. Buning uchun talabalarga varoq tarqatildi va har birlari oliy ta‘lim muassasasida o‘qish jarayonida o‘zlarida qanday ijtimoiy-kreativlik sifatlarni rivojlantirishni aniq maqsad (Goal) qilib belgilab olishlari, hozir qanday harakat qilayotgani (Reality), maqsadni amalga oshirishda qanday to‘siqlarga uchrashi mumkinligi (Obstacles) va maqsadga erishish uchun o‘zlari to‘g‘ri deb bilgan yo‘nalishni (Way forward) bayon etishlari so‘raldi. Imkon doirasida har bir talabaning fikrlari tinglandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyatini rivojlantirishga doir tajriba sinov ishlari va samaradorlik natijalari”**deb nomlanadi. Unda tajriba–sinov ishlarini tashkil metodikasi va natijalari yoritib berilgan.

